



A HERMENEUTIC STUDY OF THE ETHICS OF COMMUNICATION IN THE PHILOSOPHY OF GEORG GADAMER

Sevara B. Mamurovna

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor

Head of the Department of Philosophical and Historical Sciences

Namangan State Pedagogical Institute

Gmail: sevarabotirova111@gmail.com

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: hermeneutic thinking, Gadamer, cultural differences, communication norms, social relations, convergence of horizons, theory of interpretation, discourse norms, ethics.

Received: 26.01.26

Accepted: 27.01.26

Published: 28.01.26

Abstract: This article examines the problems of communication ethics based on the scientific heritage of Gadamer, one of the prominent theorists of hermeneutic philosophical views. Gadamer's considerations reveal complex aspects of speech ethics and social relations today and are also relevant because they have not lost their theoretical and practical significance. The article describes the important aspects of the analysis of arguments put forward for resolving communication conflicts and resolving them based on an effective approach through Gadamer's hermeneutic views.

GEORG GADAMER FALSAFASIDA MULOQOT ETIKASINING GERMENEVTIK O'RGANILISHI

Sevara B. Mamurovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent

Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi mudiri

Namangan davlat pedagogika instituti

Gmail: sevarabotirova111@gmail.com

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: germeneytik tafakkur, Gadamer, madaniy farqlanishlar, muloqot me'yorlari, ijtimoiy munosabatlar, ufqlarning uyg'unlashuvi, talqin nazariyasi, nutqiy me'zonlar, etika.

Annotatsiya: Mazkur maqola atoqli germeneytik falsafiy qarashlar nazariyotchilaridan biri bo'lgan Gadamerning ilmiy me'rosi asosida muloqot etikasi muammolarini tadqiq etadi. Gadamerning mulohazalari bugungi davr nutq etikasi,

ijtimoiy munosabatlaridagi murakkab qirralarni ochib beradi va nazariy, amaliy ahamiyatini yo'qotmaganligi uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Maqolada Gadamerning hermenevtik qarashlari orqali muloqot konfliktlarini yechish va samarali yondashuv asosida hal etish uchun ilgari surilgan argumentlar tahlilining muhim jihatlarini tavsiflangan.

ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЭТИКИ КОММУНИКАЦИИ В ФИЛОСОФИИ ГЕОРГА ГАДАМЕРА

Севара Б. Мамуровна

Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент

Заведующая кафедрой философских и исторических наук

Наманганский государственный педагогический институт

Gmail: sevarabotirova111@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые	слова:	Аннотация:
герменевтическое мышление, культурные различия, коммуникации, социальные отношения, конвергенция горизонтов, интерпретации, дискурсивные нормы, этика.	Гадамер, нормы наследия Гадамера, одного из видных теоретиков герменевтической философии. Рассуждения Гадамера раскрывают сложные аспекты этики речи и социальных отношений сегодня и актуальны также потому, что не утратили своего теоретического и практического значения. В статье описываются важные аспекты анализа аргументов, выдвигаемых для разрешения коммуникационных конфликтов, и способы их разрешения на основе эффективного подхода с использованием герменевтических взглядов Гадамера.	В данной статье рассматриваются проблемы этики коммуникации на основе научного наследия Гадамера, одного из видных теоретиков герменевтической философии. Рассуждения Гадамера раскрывают сложные аспекты этики речи и социальных отношений сегодня и актуальны также потому, что не утратили своего теоретического и практического значения. В статье описываются важные аспекты анализа аргументов, выдвигаемых для разрешения коммуникационных конфликтов, и способы их разрешения на основе эффективного подхода с использованием герменевтических взглядов Гадамера.

Kirish. Hermenevtik falsafaning, jumladan uning ijtimoiy munosabatlarning muhim qismi bo'lgan insonlarning o'zaro muloqot muammolari o'rganiluvchi tadqiqotlari insoniyat hayotida har bir sohada globallashuv avj olib borayotgan va axborotlashib borayotgan postindustrial jamiyatlar kontekstida dolzarblashib bormoqda. Hermenevtik falsafiy nazariyotchilaridan Xans Georg Gadamerning nutq odobi va muloqot me'yorlarini ilmiy asoslashda muhim tadqiqotlarni ilgari surgan asarlaridan 1960-yilda nashr etilgan "Haqiqat va usul" asari, ilmiy maqolalari va ularning tahliliga bag'ishlangan boshqa faylasuf tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari mavzuni

o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Gadmerning muloqot etikasi muammolarini ko'proq madaniyatlar muloqotidagi qarama-qarshiliklar asosida o'rgangan va individual muloqot masalalariga nisbatan kam e'tibor qaratgan. Di Sezar, Jean Grondin, Richard Palmerlar gadamer qarashlaridan ilhomlangan va tahlil qilgan ayrim tadqiqotchilardan hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni o'rganishda aksariyat hollarda manba tahliliga tayanilgan va Gadamer va uning shogirdlari, izdoshlari, tomonidan bildirilgan ilmiy izlanishlar natijalarini taqqoslash, tizimli tahlillash, analiz qilish asosida tadqiqot natijalari aniqlangan. Binobarin mavzuning obyekti aynan muloqot etikasiga oid falsafiy mulohazalar bildirilgan Gadamerning falsafiy-germenevtik qarashlaridir. Tadqiqotda asosan nazariy metodlar bilan cheklanilganiga qaramasdan, holislik, tizimli tahlil bilan o'rganishlar asosida verbal va noverbal muloqotning turli ko'rinishlarini kuzatish asosida analiz qilinishi uning amaliy tajriba bilan uyg'unlashtiradi hamda ahamiyatini ham oshiradi. Tadqiqotda so'rovnomalar yoki amaliy ijtimoiy eksperimentlardan foydalanilmagan.

Natijalar. Hans Georg Gadamerning ilmiy izlanishlari falsafiy hermenevtika va uning inson hayotida tushunish, talqin qilish va kommunikativlikni amalga oshirish bo'yicha muhim masalalarga yechim izlagan va argumentlarini asoslagan edi. Gadamer M. Xaydegger, E. Gusserllarning ilmiy qarashlari ta'sirida dunyoqarashini shakllantirgan va ularga asoslangan va takomillashgan ilmiy mulohazalarni ilgari surgan edi. Gadamer inson muloqoti va tushunishning ilmiy asoslanishini izohlaydigan muhim me'yorlar zarurligini asoslagan va hermenevtik tafakkurga asoslangan ta'lim-tarbiya asosida bunga intilgan edi. U "Haqiqat va usul" asarida yozadi: "Tushunish – bu tarix bilan muloqot; ta'lim esa bu muloqotning ijtimoiy shaklidir".[1] Gadamerning fikricha, muloqot madaniyati asosan "o'zaro tushunish" tamoyiliga asoslanadi, bu esa ishtirokchilarning bir-biriga nisbatan ochiqlik va hurmat ko'rsatishlari bilan bog'liqdir. U, shuningdek, "ufqlarni birlashtirish" konsepsiyasini ilgari suradi, bu esa har bir ishtirokchining o'z muloqotdagi tafovutlari va tajribasini inobatga olgan holda, yangi va kengroq tushuncha hosil qilish imkoniyatini beradi. Bu jarayon muloqotning samaradorligini oshiribgina qolmay, balki ijtimoiy va madaniy aloqalarni ham mustahkamlashga xizmat qiladi.

Insonlarning bilimlari takomillashuvi anglash qobiliyatini yaxshilaydi va anglashning o'zi hayotiy zarurat sifatida insondan talab etiladi. Inson boshqalar bilan muloqot qilishi bilan bilim doirasi muayyan sohada oshib boradi. Gadamerning muloqotda ma'noni anglashga alohida e'tibor qilishi muloqot maqsadlarining ro'yobga chiqarish zaruratidan kelib chiqadi. Zero suxbatdoshlarning bir-biri bilan kelishmagan holda muloqot qilishga urinishlari va murosaga asoslanmagan suxbatlar noto'g'ri talqinlar va fikriy ziddiyatlarni oshirishi ehtimoli mavjud. Ijtimoiy munosabatlarning muloqotga oid masalalari esa, hermenevtikaning muhim tadqiqot

soxalaridandir. Q.Nazarovga ko'ra, "jamiyat, germeneytik ta'limotga ko'ra, kishilar o'rtasidagi muloqotga asoslanadi. [2]

Gadamerning muloqot etikasi borasidagi muhim tashabbuslaridan biri dialogik muloqot uchun zarur koordinatorlarni asoslagani bo'ldi. Gadamer muloqotni haqiqatni izlash uchun dialogik vosita sifatida talqin qilar edi. Ushbu koordinatorni o'zlashtirgan holda ijtimoiy hayotda va baxslashuv davomida qo'llash orqali dialoglarni samarali yaxshilash mumkin bo'ladi. Jumladan, dialog qatnashchilarining bir-birini tinglash, tushunish va javob qaytarishida muayyan me'zonlar Gadamer talqinida berilgan. Kommunikatsiyada tarafkashlik muammosiga chuqur yondashgan Gadamer dialogik muloqot standartlari orqali har ikki tarafning qarashlari va munosabatlarini uyg'unlashtirish uchun me'zonlarni ilgari surgan edi. Mutafakkir muloqot etikasi haqidagi idealida uning ma'lumot almashinuvi uchungina emas, madaniy integratsiya va tushunish uchun xizmat qilishiga intiladi. Gadamerning germeneytik yondashuvi, shuningdek, empatiya va refleksivlikni rivojlantirishga yordam beradi. Muloqot jarayonida ishtirokchilar o'zaro fikr almashish orqali nafaqat o'zlarini, balki boshqalarni ham yaxshiroq tushunishga erishadilar. Bu esa muloqot madaniyatini yanada boyitadi va insonlar o'rtasidagi aloqalarning sifatini oshiradi.

Gadamer noverbal muloqotda esa, ya'ni yozma tarzda amalga oshadigan muloqotda tushunishga intilish borasida o'zidan avvalgi tadqiqotchilarning qarashlarini inkor etadi va haqiqat bilan usulni ma'no talqin qilishda tafovutli natijalariga urg'u beradi. Vilgelm Diltey va Shleyermaxerlarning muayyan uslublarni qo'llash orqali matnlarni talqin qilish haqidagi urinishlari ilmiy jihatdan o'zini oqlayvermasligini ta'kidlaydi. Muayyan usullar ma'noni doimo to'g'ri talqin qilishga imkon bermagani uchun R.Palmer "Gadamer ma'no va tushunish ma'lum usullar orqali topiladigan obyektlar emas, balki muqarrar hodisalar ekanligini ta'kidladi." [3] deb hisoblaydi.

Verbal muloqotda ma'noni aniqlash darhol konkretlashtirilishi mumkin bo'lsa-da, yozma nutq orqali yetib kelgan matnlar, va qarashlarni tushunishda tafovutlar yuzaga chiqaveradi. Gadamer yana bir muloqotdagi muammoli masalalardan biri bo'lgan tarjima qilish orqali ma'noni tushunish borasidagi germeneytik qarashlarini tushuntiradi va muloqot munosabatlariga ta'sirini bayon qiladi. Unga ko'ra, tarjimon muayyan kontekstni o'rganish barobarida o'z jamiyatiga tushuntirish va talqin qilishga ham ehtiyoj sezadi va o'z jamiyatiga xos bo'lgan madaniy kodlarga, mafkuraga moslaydi. Ayni paytda bu ma'noni buzmaydi va har ikki holat ham reallik sifatida namoyon bo'ladi.

Chunki muloqotning har bir ko'rinishida muloqot ishtirokchilari anglash davomida o'z maqsadlarini ham ifodalashi va talqin qilishi uchraydigan holatdir. Gadamer falsafasini o'rgangan F.Gonsales bunga munosabat bildirib, shunday degan edi, "suhbatdagi har bir ishtirokchi bir-biri bilan bir-birini tushunishning umumiy maqsadiga tegishli bo'lgan darajada munosabatda bo'ladi."

[4] Gadamer falsafasida ayni shunday muloqotda tomonlarning til, madaniyat va boshqa xususiyatlar sababli tafovutlarni namoyon etishlari yuqorida keltirilgani kabi “ufqlarning uyg‘unligi” borasidagi qarashlarida, nemischa “Horizontverschmelzung” ifodalangan. Unga ko‘ra, turli farqlanishlarga qaramay muloqot ishtirokchilari asta-sekinlik bilan bo‘lsa-da, ko‘pchilikni qanoatlantiradigan pozitsiyaga birlashadilar. Muloqot jarayonida farqli ijtimoiy kelib chiqishga, til, din va boshqa standartlar asosida ajraluvchi insonlar suxbat mazmunini boyitadi va integratsiyalashadi.

Axloqiylik xususiyatlarining muloqotga doir me‘zonlarini o‘rganishda falsafiy yondashuvlar muhim masalalarga javob beradi va tavsiflaydi. Mutafakkir Gadamerning ilmiy-falsafiy nazariyalari esa, muloqot tarbiyasi va me‘yorlarining shakllanishiga oid bo‘lgan zarur argumentlarni ilgari suradi. Gadamerning izlanishlari nafaqat uning izdoshlari, balki zamonaviy hermenevtik tafakkur tadqiqotlari uchun ham muhim asos bo‘lib qolmoqda. Georg Gadamerning hermenevtik yondashuvi muloqot madaniyatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning nazariyasi va metodologiyasi insonlar o‘rtasidagi muloqotning chuqurligini va samaradorligini oshirishga qaratilgan. Gadamer, muloqot jarayonini faqatgina ma’lumot almashinuvi sifatida emas, balki madaniy va tarixiy kontekstda o‘zaro tushunish jarayoni sifatida ko‘radi. U, shuningdek, muloqotning dialektik tabiati va har bir ishtirokchining o‘z nuqtai nazarini keltirib chiqarish zarurligini ta’kidlaydi.

Gadamer ta’kidlaganidek, “tushunish — bu bilimning metodik shakli emas, balki mavjudlikning o‘zini ochuvchi voqelik”. [5] Ya’ni muloqotda ishtirokchilar turli “ufqlar”ga mansub bo‘lganlari xolda, qarshi tarafning ham qarashlariga ochiqlik va tolerantlikka moyil bo‘lishlari ufqlar uyg‘unlashuviga erishish uchun kerak bo‘ladi. Zero, suxbat faqatgina qarashlarni almashish bilangina chegaralanmasdan ularni tahlil qilish va tushunishni ham nazarda tutmog‘i lozim. Ayni shunday holat boshqa suxbatdoshning fikrlariga hurmat ko‘rsatish orqali muloqot etikasini amalga oshishga yordam beradi.

Gadamer shaxslar o‘rtasidagi va jamiyat miqyosidagi kommunikatsiyada qarashlarda o‘rnashib qolgan xurofotlarga, ya’ni qarama-qarshi taraf haqidagi tasavvurlarga qattiq o‘rnashib olmaslikka urg‘u beradi. Chunki bunday ta’sirlashuv natijasidagi suxbat xolislik asosida shakllanmasligi ehtimoli ortadi. Ayni paytda xurofotlar ro‘yobga chiqishi yoki aksiga qarab, xurofotlarni qayta baholash va suxbatdosh bilan muloqot tarzini moslash orqali ma’lum muvozanatni saqlash ham zarur. Gadamer ma’rifatparvar mutafakkirlarni “xurofotlarga qarshi xurofotlar”ni yashirgani uchun tanqid qildi. [6] Gadamer qarashlariga ko‘ra, xurofotlar haqiqatning qismi sifatida suxbatda tushunishga to‘sqinlik qilmaydi.

Muxokama. Gadamer qarashlarining o‘zidan keyin o‘rgangan faylasuflar unga nisbatan turlicha munosabatda bo‘lganlar va tahlillarini bayon etganlar. Erik Xirsh va Yurgen Xabermaslar

gadamer qarashlaridan ta'sirlangan va turli soxa vakillari uning ijobiy jihatlarini e'tirof etgalar. Shu bilan birga muloqotga va hermenevtik talqinga oid Gadamer argumentlari, jumladan asosiy asari bo'lgan haqiqat va usul ham tanqidiy yondashuvlarga uchrab turgan. Faylasuf Adolf Grünbaum "Haqiqat va usul"ni tanqid qilib, "Gadamer fan usullarini noto'g'ri tushunganini va tabiiy va gumanitar fanlar o'rtasida noto'g'ri qarama-qarshilik ko'rsatganini" [7] ta'kidladi.

Ayni hermenevtika muloqotning turli tarzda amalga oshiriluvchi usullarida tushunish, sharxlash va boshqa murakkab jihatlarini o'rgangani uchun ham muloqotni yaxshilashda muhim nazariy vosita sifatida ham qo'llanila boshladi. Muloqot kontekstida, jamiyat a'zolarining ma'lumot almashinuvi, munosabatlari va qarashlarining bildirilishi, izohlanishi va anglanishiga e'tibor qaratdi. Jumladan hermenevtika nazariyotchilaridan G.Gadamer tomonidan dialogik muloqotda o'zaro tushunish jarayonini yaxshilovchi metodlari ilgari surildi. Gadamer muloqotda ustuvorlikni muzokaraga va qarama-qarshi tarafning yondashuvini tinglash orqali xolislik va aniqroq yondashuvga intilishda deb bilgan. Oxir-oqibat, Gadamer uchun matnni talqin qilish modeli sifatida suhbatning eng muhim dinamikasi "savol-javobning o'zaro ta'siri"dir. [8] Shuningdek, jamiyat kontekstida u farqlanishlarning turlicha xususiyatlari orqali muloqot madaniyatida bo'ladigan o'zgacha xususiyatlar asta-sekinlik bilan cheklanib, mazmunan uyg'unlashadi deb xisoblagan.

Germenevtik jihatdan muloqotga verbal, ya'ni og'zaki tarzda kechadigan jarayonlar ham, noverbal muloqot xos bo'lgan imo-ishora va ijtimoiy kommunikatsiyalarning boshqa ko'rinishlari ham xos bo'lsa-da, ularni ifodalash va tushunish uchun farqli yondashuvlar qo'llaniladi. Ya'ni muloqot jarayoni faqatgina so'zlashish orqali ro'y beradigan ijtimoiy xodisa bo'lib qolmay, noverbal shaklda ham amalga oshadi. Muloqotda har qaysi muloqot uslubining o'ziga xos xususiyatlari, ma'nosi mavjud va birgalikda bir-birini to'ldiradi. Talqin qilishda esa, hermenevtika bir qator muhim tasniflovchi belgilardan foydalanadi.

Gadamerning falsafiy mushoxadalarini tahlil qilish asosida uning muloqot etikasiga doir nuqtayi nazarlarining asosiy mazmuni anglashilmoqda va ular quyidagilardan iborat:

- muloqotda har bir subyektning fikri e'tibordan qoldirilmasdan suhbat etikasi sifatida tinglanishi va qabul qilinishi;
- muloqot to'g'ri tashkillantirilishi taraflarning o'zaro fikrlashlarida ta'sirlanishi va chuqur mulohaza yuritishga imkon berishi;
- qarshi tarafning muloqot madaniyati va nutqining mazmunida aks etadigan tarixiy va madaniy kontekstni anglash suhbatda kelishuvchanlikni oshirishi va konfliktlarni kamaytirishi;
- tushunish va ma'noni talqin qilishdagi kamchiliklar birlamchi nuqsonlar sifatida suhbat me'yorlarining buzilishini ko'rsatadi.

Shunday qilib, Georg Gadamer tomonidan ilgari surilgan hermenevtik qarashlar muloqot madaniyatini yaxshilashda muhim nazariy asoslarni taqdim etadi. Ularning amaliy qo'llanilishi ijtimoiy aloqalarni kuchaytirish, madaniy farqlarni inobatga olish va insonlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni chuqurlashtirishga yordam beradi. Gadamerning yondashuvi zamonaviy jamiyatda muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy vositalarni taqdim etadi, bu esa kelajakdagi muloqotlarning sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. O'rganishlar natijasida, Gadamerning muloqot etikasi haqidagi ilmiy qarashlari ayrim xollarda yirik kontekstda, madaniyatlar va xalqlar miqyosida o'rganishni qamrab olgan va dialogik suxbat me'zonlarini ham suxbatda tolerantlik va muvozanatdagi erkinlik asosida kelishuvga asoslanganini anglash mumkin. Gadamer talqin nazariyasi asosida suxbat mazmunini anglatish asosiy muloqotdagi kamchiliklarni bartaraf etadi deb xisoblagan va anglash, hermenevtik tafakkurni boyitishga intilgan. Uning qarashlari globallashib borayotgan zamonaviy insoniyat hayotida muhim integratsiyalovchi nazariy asos vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гадамер, Г.-Г. 1988. Истина и метод. — Москва: Прогресс, — б. 312.
2. Q.Nazarov [va boshq.]. 2018. Falsafa asoslari [Matn]: o'quv qollanma - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, - 84-bet.
3. Palmer, Richard (1969). Hermeneutics: Interpretation Theory in Schleiermacher, Dilthey, Heidegger, and Gadamer. Evanston, IL: Northwestern University Press. P.163
4. Gonzales, Francisco J. (2006). "Dialectic and Dialogue in the Hermeneutics of Paul Ricoeur and H.G. Gadamer". Continental Philosophy Review. 39 (1): p. 323.
5. Гадамер, Г.-Г. 1988. Истина и метод. — Москва: Прогресс, — б. 704
6. Gonzales, Francisco J. (2006). "Dialectic and Dialogue in the Hermeneutics of Paul Ricoeur and H.G. Gadamer". Continental Philosophy Review. 39 (1): p. 328.
7. Grünbaum, Adolf (1985). The Foundations of Psychoanalysis: A Philosophical Critique. Berkeley and Los Angeles: University of California Press. pp. 16-17.
8. Gonzales, Francisco J. (2006). "Dialectic and Dialogue in the Hermeneutics of Paul Ricoeur and H.G. Gadamer". Continental Philosophy Review. 39 (1): p. 323.